




ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



Mening dunyom befarqlik
ummonida suzib yuruvchi
kichik og'riq oroli!

ZIGMUND FREYD
(1856-1939)

2022

MAY
№ 40



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
6-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-6**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-6**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 40-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ЖУРНАЛИСТИКА

1. Kurdatullayev Karamatulla	
“TARAQQIY” ILK O’ZBEK XUSUSIY NASHRI SIFATIDA.....	7
2. Tursunova Xonzodabegim Xudoberdi qizi	
O’ZBEKİSTONDAGI MASHHUR BLOGLAR HOLATI VA ULARNING TAHLİLİ.	9
3. Tursunova Xonzodabegim Xudoberdi qizi	
O’ZBEKİSTONDAGI MASHHUR BLOGLAR HOLATI VA ULARNING TAHLİLİ.	11
4. Xolliyev Nurshod Husan o’g’li	
JURNALISTIKANING VUJUDGA KELISHI, RIVOJLANISHI TAMOYILLARI VA MEDIA TAFAKKUR SIFATIDA.....	13
5. Xudayberdiyeva Muxlisa	
TURIZM SOHASIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR.....	15
6. Yo`ldosheva Mohira	
AUDITORIYAGA TA’SIR QILISH USULLARI	17



ЖУРНАЛИСТИКА

“TARAQQIY” ILK O’ZBEK XUSUSIY NASHRI SIFATIDA

Kurdatullayev Karamatulla

O’zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalari universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. XVIII asr 2-yarmining boshlarida Rossiyada birinchi shaxsiy jurnallar paydo bo’ldi. O’zbek matbuotining paydo bo’lishi rus matbuoti tarixi bilan chambarchas bog’liq ekan, biz bu masalaga e’tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Kalit so’zlar: gubernatorlik, manifest, imperiyachilik siyosati, liberallar, korrespondensiya.

Turkistonda XX asr boshidagi ma’rifatparvarlik harakati bevosita jadidlar ta’sirida, jumladan, ulaming yangi maktab uchun kurashi shaklida rivojlandi. Ilg’or mayllarni rivojlantirish va ta’lim berishning eski, qotib qolgan usullariga qarshi turish bu harakatni rag’batlantiruvchi asosiy jihatlardan bo’ldi. Maktablarda dars berishning yangicha usullarini, ulaming o’quv rejalariga tabiiy-ilmiy mazmundagi yangi flkrlarni (geografiya, tarix, matematika) kiritish targ’ib qilindi, yangi darsliklar, qo’llanmalar, bibliografik ma’lumotnomalarini tayyorlash ishlari olib borildi.

Shunday bir sharoitda o’lkada yorqin ifodalangan ijtimoiy-vatanparvarlik yo’nalishidagi «Taraqqiy» gazetasi paydo bo’ldi. Birinchi soni 1906-yilda Toshkentda chiqqan bu gazeta atigi uch oy mobaynida nashr etib turildi. Uning 20-soniyoga politsiya tomonidan tortib olinib, musodara qilindi.

Juda qisqa muddat faoliyat ko’rsatganligiga qaramasdan, «Taraqqiy» gazetasi jadidchilikning dasturi va maqsadlarini ommalashtirishda katta ahamiyatga ega bo’ldi. Gazeta gubernatorlik matbuoti og’iz ochmay kelayotgan dolzarb masala va mavzularni birinchi marraga olib chiqdi. Bu esa rasmiy matbuot (masalan, «Turkiston viloyatining gazeti» noroziligiga sabab bo’lib, ikki orada munozara keltirib chiqardi. «Taraqqiy» gazetasi podshoning 1905-yilgi manifestini, Kavkaz va Markaziy Osiyodagi imperiyachilik siyosatini fosh qildi, uning rus-yapon urushidagi harbiylashish maqsadlarini ochib tashladi. Turkiston milliy vatanparvarlik kuchlarini mavjud hokimiyatga qarshi harakatlarida birlashishlari uchun kurashdi.¹

Gazeta aniq-ravshan faktlar, boshqa nashrlarning materialiariga ishoralar bilan mahailiy gazetxonga rasmiy hokimiyat jar solayotgan shiorlar, dasturlar va ularning amaldagi harakatlari o’rtasidagi farqni ko’rsatib berardi. Uning maqolalari asosan ommada ijtimoiy-siyosiy ongni shakllantirishga, mavjud ijtimoiy-siyosiy imtiyozli boy-badavlat toifalar haqida aholining ularga qaram, huquqsiz, zulm va qashshoqlikda kun ko’rib kelayotgan qatlamlari borligini tushungan holda yo’naltirilgan edi.

Shu ma’noda, masalan, «Dunyo boylari va mehnatdan boshqani bilmaydiganlar xususida» sarlavhali maqola e’tiborga molikdir. Unda zamondoshlar uchun yangicha ohang bunday adolatsizlikka barham berish mumkinligiga, lekin buning uchun xalq manfaatlariga zid siyosatga qarshi kurashda birlashish lozimligiga ishonch ohangi yangradi. Gazeta ilk sonidayoq toshkentlik temiryo’lchilarni ular ma’muriyatining adolatsiz xatti-harakatlaridan himoya qilib chiqdi. Uning sahifalarida o’sha davr ijtimoiy hayotining xarakterli hodisalaridan bo’lgan Rossiya yutuqlarini o’zlashtirishga, uning ziyyolilari va xalqi bilan yaqinlashishga, rus tili va adabiyotini o’zlashtirishga e’tibor qaratish bilan bir vaqtida chorizm siyosatini tanqid qilish ham o ‘z aksini topdi.

1 “Jahon jurnalisstika tarixi” F. Mo’mnov, A. Nurmatov “Toshkent” 2008-y



Gazetada liberallar va murosachilaming 1905-yil manifestiga nisbatan ijobjiy munosabatlar bildirilgan, xalq podshoga bo'ysunishi, osoyishtalik saqlashi, ish tashlashlarda ishtirok etmasligi kerak, deb hisoblaydigan maqolalari ham berilardi. Umuman olib qaraganda, «Taraqqiy» gazetasining faoliyati milliy-ozodlik, xalqqa o'z davlatini o'zi boshqarish huquqi berilishi uchun kurashuvchi matbuot namunasi bo'ldi. Uning boshqa bir muhim shiori-turmushni o'zgaitirish, o'z umrini yashab bo'Igan urf-odatlar, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'luchchi bid'atlardan qutulishdan iborat edi.

Gazeta maorifni rivojlantirishni, yangi kasblarga o'rgatishni yoqlarkan, o'quvchilarni bunday sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashga chorladi. Uning materiallari oddiy gazetxonlarga, mehnatkashlarning keng qatlamlariga mo'ljallangan bo'lardi. Ularda juda jo'n misollar asosida Turkiston va boshqa mamlakatlarda xalqlar o'z huquqlari uchun qanday kurash olib borishlari ko'rsatib berilardi. «Endi bizlar do'st kim, dushman kim ekaniga xo'b tushundlk. Boylar, to'ralar xotiri uchun gazetachilarimiz har qancha so'karga qo'shish qilsalar ham, biz alaming so'zlariga qulq solmasmiz».¹

Gazetaning birinchi sonida podsho hukumaii O'zbekistonda mahaliyi tillarda gazeta va jurnallar nashr etishiga butun choralar bilan qarshi turishi haqidagi maqola e'lon qilindi. «Musulmonlar ichina haqliq tarqalmasun» deb gazeta va jumallar nashr etmakka hech ruxsat berilmas erdi. Ammo missionerlarga musulmonlar zarariga qoralig` tarqatmak uchun ijozat erdi. Bu kabi xo'rlik va zulmlarni chekurga rozi bo`lmasak, gavdamizdan boshimizni, tanamizdan jonimizni ayrub, bolalarimizni etim qilurlar edi², deb yozilgandi unda. Bulaming barchasi o'lka ma'muriyatining noroziligini uyg'otardi. Shu sababli gazetaning dastlabki uch soni musodara qilindi, muharrir Ismoil Gabidov esa sud javobgarligiga tonildi.

«Taraqqiy» gazetasining Turkiston matbuoti tarixidagi ahamiyati, birinchi navbatda, uning ilg'or g'oymalarni, o'lkadagi madaniy-ma'rifiy harakatni dadil qo'llab-quvvatlaganligi bilan belgilanadi. Qisqa muddat nashr etilganligiga qaramasdan, gazeta katta obro' qozonib, gazetxonlar keng doirasining e'tiborini tortishga muvafqaq bo'ldi. Mahalliy tilda chiqib turganligi ham uning ommalashuviga yordam berdi. Ilgari tub yerli xalq asosan adabiy-diniy adabiyotlar, ilohiyotshunoslar va ma'rifatchilarning og'zaki so'zleri asosida tarbiyalanib kelgan bo'lsa, «Taraqqiy» gazetasi dunyoviy hayot bilimlarini axborotning yangi manbai bo'Igan vaqtli matbuotdan o'zlashtirishga yo'l ochib berdi.

Hozirjavob, dolzarb siyosiy axborot, korrespondensiyalar gazeta va jurnallarga ehtiyoj va qiziqish uyg'otib, jrnalistikada real hayot voqealari to'g'ri aks etishining ahamiyatini his qilishga yordamlashdi. Gazeta sahifalarida o'zbek matbuotining ko'zga yorqin tashlanib turgan siyosiy, publitsistik mazmundagi axborot-tahliliy janrlari rivoj topdi. Bulaming barchasi mahalliy aholi uchun yangilik edi. Gazetaning chinakamiga milliy xarakteri, vatanparvarligi, mahalliy xalqlar manfaatlarini himoya qilishdagi dadilligi, siyosatning keskin masalalarini yoritganligi uning birinchi soni chiqqan kunni (27-iyun) mustaqil O'zbekistonda jurnalistlar, barcha ommaviy axborot vositalari xodimlarining kasb bayrami qilib belgilanishiga asos bo'ldi.

«Taraqqiy» gazetasining mualliflaridan olimlar Mahmudxo'ja Behbudiy, V. P. Nalivkin, Munavvar Qori Abdurashidxonov, shoira Nozimaxonim, yozuvchilar va tarjimonlar Abdusafih, Ismoil Aliyev, Shokir Muxtor va boshqalami sanab o'tish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. “Jahon jurnalistika tarixi” F. Mo'minov, A. Nurmatov “Toshkent” 2008.
2. “Taraqqiy” 1906-y. iyun
3. Jalilov A., O'zganboyev X. O'zbek m a'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida baqtli matbuotning roli. T.: «Fan», 1993.
4. Бобоҷонова О. Ўзбекистоннинг кўхна китоблари // “Мозийдан садо”. – Т., 2006. – №4. – Б. 9

1 “Taraqqiy” 1906-y. iyun

2 Jalilov A., O'zganboyev X. O'zbek m a'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida baqtli matbuotning roli. T.: «Fan», 1993.



O’ZBEKISTONDAGI MASHHUR BLOGLAR HOLATI VA ULARNING TAHLILI.

Tursunova Xonzodabegim Xudoberdi qizi

O’zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti magistri

Annotation. Maqolada blog haqida ijtimoiy-sotsial tushuncha sifatida hamda mamlakatimizdagi mavjud bloglar faoliyatini ilmiy asoslar bilan tizimli tahlil qilish orqali mavzuni aniq yoritib berishga harakat qilingan. Qolaversa mamlakatimizdagi bloglarning mashhurlilik darajasini bo’yicha holati ham ko’rib chiqilgan.

Keywords: blog, ijtimoiy-sotsial tushuncha, ilmiy asoslar, tizimli tahlil, mashhurlilik darajasi.

Bugungi kunda internet olami rivojlanib, Facebook va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarning tobora ommalashib borishi bilan birga, xilma-xil bloglarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

O’zbekistonda ham turli mavzudagi internet bloglar tuzilishi odamlarning erkin fikrlashga, atrof-muhiddagi hodisalarga munosabatini bildirishga ishtiyoqi kuchlilagini ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqda ancha faol Shermuhammad.com blogi egasi o’zbekcha bloglarning ro‘yxatini tuzib chiqqan.

O’z blogida e’lon qilgan bu ro‘yxatga u muhrim.blogi.uz, GEOPOLITIKA.UZ, Xushnubek.UZ, temurazam.blogspot.com, Boshqacha blog - bb.muloqot.uz, davronbek.ziyouz.com, tanqidchi.blogspot.com kabi o‘ndan ortiq bloglarni kiritadi.¹

Bloglarning ko‘piga xos xususiyat qisqa satr va iboralarda asosiy mavzuga urg‘u berilishidir.

Jumladan, bolaturk.livejournal.comda “Aybdor kunda emas - aybdor bolta. Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni, gulruxsor.blogspot.comda “Qozon”imda bori, zahiriddin.blogspot.comda-Kamina dunyosi, notanish.blogspot.com - Hamma o‘qishi shart emas!, oddiy.blogspot.com - oddiy blog, shamollar.blogspot.com - shamollar yurtidan xabarlar, hamroyev.blogspot.com - Dunyoning ismi, zimistoniy.blogspot.com - Bizda kutish emas, kurashish buyurilgan, dilshodra.blogspot.com - komillikkha intilib kabi satrlar orqali bloglarning maqsadi qisman anglatiladi.

Qirg‘izistonlik blogger Shermuhammad Abdug‘afurov bloglar ro‘yxati yoki reytingini qaysi jihatlarga asosan tuzgani borasida shunday deydi:

- O’zbekcha bloglar ro‘yxatini tuzganim rost, faqat uni reyting deb atash biroz noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki ro‘yxatni tuzayotib, uning o‘quvchilar orasida mashhurlilik darajasini hisobga olmaganman, balki, shunchaki qaysi blog yoki blogger esimga kelsa, o‘shani kiritganman. Ya‘ni aniq qandaydir qonun-qoida asosida tartibga solinmagan bu ro‘yxat.

Ro‘yxat tuzishdan maqsad nima?

- Maqsad, o‘zbek bloggerlarning o‘zini ham bir davra atrofiga jamlash. Umuman, bu borada o‘tgan yildan beri harakat bor. Facebookda UzBloggerlar degan guruh mavjud. U yerda bloggerlar o‘zlarining so‘nggi maqolalarini qo‘yib borishadi. Bunday olganda, ro‘yxat tuzish ham yangilik emas. Bunday oldin muhrim.uz blogida ham shu kabi ro‘yxat tuzilgan. Mening tuzganim shu ro‘yxatning to‘ldirilgan nusxasi desa bo‘ladi. U yerda yo‘q bloglarni qo‘shganman, anchadan beri yangilanmaganlarini olib tashlaganman, deydi Shermuhammad Abdug‘afurov.

Kun.uz saytida “O’zbekistonda bloggerlar faoliyatini tartibga solish”haqida hujjat tayyorlanayotgani xabar qilinadi. Hali u qadar rivojlanmagan bloggerlik O’zbekistonda qanchalik xavf tug‘dirishi mumkin yoki bu hujjatni qabul qilishdan boshqa maqsad bormi?

Shermuhammad Abdug‘afurovga ko‘ra, bunday hujjatga ehtiyyot chorasi sifatida qarash kerak. Chunki Rossiya blogger Navalniyning asta-sekin muxolifatning ko‘zga ko‘ringan vakiliga aylangani O’zbek hukumatini ham xavotirga solgan va ehtiyyot choralarini ko‘rishga undagan bo‘lishi mumkin. Lekin ayni paytda bloggerlar hukumatga xavf tug‘dirishi va odamlarni siyosiy harakatlarga boshlashi haqida aytish qiyin. Qolaversa, o‘zbek bloglari mualliflarning asosan bo‘sh vaqtlarida yangilab turilishi bois, keng jamoatchilikda unchalik qiziqish uyg‘otmasligi mumkin.

Lekin shunga qaramasdan, “O’zbekistonda ham qo‘shni Qirg‘iziston va Qozog‘istonda bo‘lgani kabi ancha erkin fikrlar beriladigan Live journal, World Press bloglariga kirishda mushkulliklar bor”.

1 https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/07/130724_latin_uzwebiston_bogosphere UzWebiston: O’zbek tilidagi bloglar qanchalik mashhur?



“O‘zbek tilidagi bloglar ichida ijtimoiy-siyosiy, yuridik mavzularda maslahat va fikrlar qoldiradigan bloglar, shuningdek futbolga taluqli bloglar mashhur bo‘lib turgani kuzatilmoxda”.

O‘zbekistonning futbol bo‘yicha jahon championatiga chiqishiga juda yaqin borgani futbol haqidagi xabarlarga qiziqishni oshirib yuborgan.

Shermuhammad.com blogida “Hamma narsa haqida biror narsa, biror narsa haqida hamma narsa”, degan so‘zlarni o‘qish mumkin. Blogdagi maqolalarda muallif iqtisodiy, siyosiy voqealar bilan birga madaniy yangiliklarga ham o‘z munosabatini bildirishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/07/130724_latin_uzwebiston_bogosphere.
- UzWebiston: O‘zbek tilidagi bloglar qanchalik mashhur
2. <https://civil.uz/bloggerlik-nima-birinchi-dars/>
3. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonga-dunyoga-mashhur-100ga-yaqin-bloqer-tashrif-buyuradi>



O’ZBEKISTONDAGI MASHHUR BLOGLAR HOLATI VA ULARNING TAHLILI.

Tursunova Xonzodabegim Xudoberdi qizi

O’zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti magistri

Annotation. Maqolada blog haqida ijtimoiy-sotsial tushuncha sifatida hamda mamlakatimizdagi mavjud bloglar faoliyatini ilmiy asoslar bilan tizimli tahlil qilish orqali mavzuni aniq yoritib berishga harakat qilingan. Qolaversa mamlakatimizdagi bloglarning mashhurlilik darajasini bo’yicha holati ham ko’rib chiqilgan.

Keywords: blog, ijtimoiy-sotsial tushuncha, ilmiy asoslar, tizimli tahlil, mashhurlilik darajasi.

Bugungi kunda internet olami rivojlanib, Facebook va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarning tobora ommalashib borishi bilan birga, xilma-xil bloglarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

O’zbekistonda ham turli mavzudagi internet bloglar tuzilishi odamlarning erkin fikrlashga, atrof-muhiddagi hodisalarga munosabatini bildirishga ishtiyoqi kuchlilagini ko‘rsatmoqda.

Ayni paytda ijtimoiy tarmoqda ancha faol Shermuhammad.com blogi egasi o’zbekcha bloglarning ro‘yxatini tuzib chiqqan.

O’z blogida e’lon qilgan bu ro‘yxatga u muhrim.blogi.uz, GEOPOLITIKA.UZ, Xushnubek.UZ, temurazam.blogspot.com, Boshqacha blog - bb.muloqot.uz, davronbek.ziyouz.com, tanqidchi.blogspot.com kabi o‘ndan ortiq bloglarni kiritadi.¹

Bloglarning ko‘piga xos xususiyat qisqa satr va iboralarda asosiy mavzuga urg‘u berilishidir.

Jumladan, bolaturk.livejournal.comda “Aybdor kunda emas - aybdor bolta. Muhit kuchli ekan, egdim bo‘ynimni, gulruxsor.blogspot.comda “Qozon”imda bori, zahiriddin.blogspot.comda-Kamina dunyosi, notanish.blogspot.com - Hamma o‘qishi shart emas!, oddiy.blogspot.com - oddiy blog, shamollar.blogspot.com - shamollar yurtidan xabarlar, hamroyev.blogspot.com - Dunyoning ismi, zimistoniy.blogspot.com - Bizda kutish emas, kurashish buyurilgan, dilshodra.blogspot.com - komillikkha intilib kabi satrlar orqali bloglarning maqsadi qisman anglatiladi.

Qirg‘izistonlik blogger Shermuhammad Abdug‘afurov bloglar ro‘yxati yoki reytingini qaysi jihatlarga asosan tuzgani borasida shunday deydi:

- O’zbekcha bloglar ro‘yxatini tuzganim rost, faqat uni reyting deb atash biroz noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki ro‘yxatni tuzayotib, uning o‘quvchilar orasida mashhurlilik darajasini hisobga olmaganman, balki, shunchaki qaysi blog yoki blogger esimga kelsa, o‘shani kiritganman. Ya‘ni aniq qandaydir qonun-qoida asosida tartibga solinmagan bu ro‘yxat.

Ro‘yxat tuzishdan maqsad nima?

- Maqsad, o‘zbek bloggerlarning o‘zini ham bir davra atrofiga jamlash. Umuman, bu borada o‘tgan yildan beri harakat bor. Facebookda UzBloggerlar degan guruh mavjud. U yerda bloggerlar o‘zlarining so‘nggi maqolalarini qo‘yib borishadi. Bunday olganda, ro‘yxat tuzish ham yangilik emas. Bunday oldin muhrim.uz blogida ham shu kabi ro‘yxat tuzilgan. Mening tuzganim shu ro‘yxatning to‘ldirilgan nusxasi desa bo‘ladi. U yerda yo‘q bloglarni qo‘shganman, anchadan beri yangilanmaganlarini olib tashlaganman, deydi Shermuhammad Abdug‘afurov.

Kun.uz saytida “O’zbekistonda bloggerlar faoliyatini tartibga solish”haqida hujjat tayyorlanayotgani xabar qilinadi. Hali u qadar rivojlanmagan bloggerlik O’zbekistonda qanchalik xavf tug‘dirishi mumkin yoki bu hujjatni qabul qilishdan boshqa maqsad bormi?

Shermuhammad Abdug‘afurovga ko‘ra, bunday hujjatga ehtiyyot chorasi sifatida qarash kerak. Chunki Rossiya blogger Navalniyning asta-sekin muxolifatning ko‘zga ko‘ringan vakiliga aylangani O’zbek hukumatini ham xavotirga solgan va ehtiyyot choralarini ko‘rishga undagan bo‘lishi mumkin. Lekin ayni paytda bloggerlar hukumatga xavf tug‘dirishi va odamlarni siyosiy harakatlarga boshlashi haqida aytish qiyin. Qolaversa, o‘zbek bloglari mualliflarning asosan bo‘sh vaqtlarida yangilab turilishi bois, keng jamoatchilikda unchalik qiziqish uyg‘otmasligi mumkin.

Lekin shunga qaramasdan, “O’zbekistonda ham qo‘shni Qirg‘iziston va Qozog‘istonda bo‘lgani kabi ancha erkin fikrlar beriladigan Live journal, World Press bloglariga kirishda mushkulliklar bor”.

1 https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/07/130724_latin_uzwebiston_bogosphere UzWebiston: O’zbek tilidagi bloglar qanchalik mashhur?



“O‘zbek tilidagi bloglar ichida ijtimoiy-siyosiy, yuridik mavzularda maslahat va fikrlar qoldiradigan bloglar, shuningdek futbolga taluqli bloglar mashhur bo‘lib turgani kuzatilmoxda”.

O‘zbekistonning futbol bo‘yicha jahon championatiga chiqishiga juda yaqin borgani futbol haqidagi xabarlarga qiziqishni oshirib yuborgan.

Shermuhammad.com blogida “Hamma narsa haqida biror narsa, biror narsa haqida hamma narsa”, degan so‘zlarni o‘qish mumkin. Blogdagi maqolalarda muallif iqtisodiy, siyosiy voqealar bilan birga madaniy yangiliklarga ham o‘z munosabatini bildirishga harakat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/07/130724_latin_uzwebiston_bogosphere.

UzWebiston: O‘zbek tilidagi bloglar qanchalik mashhur

2.<https://civil.uz/bloggerlik-nima-birinchi-dars/>

3. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonga-dunyoga-mashhur-100ga-yaqin-bloqer-tashrif-buyuradi>



JURNALISTIKANING VUJUDGA KELISHI, RIVOJLANISHI TAMOYILLARI VA MEDIA TAFAKKUR SIFATIDA.

Xolliyev Nurshod Husan o'g'li

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistri

Annotation. Ushbu maqolada xalqaro jurnalistikaning asl mohiyati hamda uning tamoyillari xususida fikr-mulohazalar va ilmiy qarashlar keltirilgan. Shu bilan birgalikda sohasidagi zamonaviy jurnalistika tamoyillari ham keltirib o'tilgan. Xalqaro jurnalistikaning media tafakkuri sifatida namoyon bo'lishi ham maqolada yoritib berilgan,

Keywords: xalqaro jurnalistika, asl mohiyati, fikr-mulohazalar va ilmiy qarashlar, zamonaviy jurnalistika, media tafakkuri.

Kirish: Miloddan avvalgi 59 yilda. gazetaning birinchi prototipi Rimda paydo bo'ladi. Qaysarning ko'rsatmasi bilan "Acta diurna senatus ac populi" gil lavhalarda paydo bo'la boshladi va ular oxir-oqibat ikki yo'naliishga bo'lingan. Forum binosiga joylashtirilgan "Acta senatus" Senatdagi chiqishlar haqida ma'lumot berdi. Bu elita, yuqori sifatlari gazetaning prototipi edi. "Acta diurna populi romani" maydon va bozorlarda namoyish etildi. U shahar yangiliklari haqida gapirdi. Ular gazetadan nusxa ko'chirishdi, demak, uning tirajlari haqida gapirish mumkin. Acta diurna o'zining qisqaligi va qulayligi bilan ajralib turdi va zamonaviy ommaviy gazetaning prototipi edi. Zamonaviy muxbirlarning peshqadami bo'lgan Acta diurna uchun material to'plagan odamlarni dijurnalistlar deb atashgan. "Jurnalist" so'zining etimologiyasi shundan kelib chiqqan.¹

Jurnalistikaning har bir turi voqelikni aks ettirishning o'ziga xos usuliga ega. Butun dunyo matbuot, radio va televideniyeni ommaviy axborot vositalari deb atashga odatlangan. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo'q: jurnalistik asarlarni yaratishning turli usullaridan foydalangan holda, jurnalistikaning har bir turi ushbu asarlarni axborot iste'molchisiga etkazishning turli vositalardan foydalanadi. Radio va televideenie jurnalislari eshittirishadi, lekin birinchisi faqat audio ma'lumotni, ikkinchisi esa ovoz va tasvirni ham efirga uzatadi. Internet-jurnalistikaga jurnalistikaning nisbatan yangi turi bo'lib, mobil jurnalistika ham ajralib turadi.

Ba'zida axborot agentliklari jurnalistikaning o'ziga xos turi hisoblanadi. Biroq, agentlik xodimlarining gazeta, televideenie va radiodagi hamkasblari bilan ishlash uslublari to'liq o'xshash bo'lishiga qaramay, bu bo'limlar ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos infratuzilmasi, yordamchi bo'linmasi hisoblanadi.

Jurnalistika - faoliyat tizimi Ommaviy axborotni izlash, qabul qilish, ishlab chiqarish va tarqatish, ommaviy axborot vositalarini yaratish, ularga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish, texnik vositalar va uskunalarini, xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish, sotib olish, saqlash va ulardan foydalanishi o'z ichiga oladi.

Xalqaro jurnalistika - bu kasblar majmuidir faoliyatining barcha yo'naliishlarini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaiviy jurnalistik muvaffaqiyatli faoliyati professional va jurnalistik yo'naliishlarni talab qiladigan menejment, marketing, reklama va injiniring mutaxassislar (xususan, aloqa muhandislari, video muhandislari, dasturchilar va kompyuter operatorlari va boshqalar) tobora muhim o'rinn egallaydi.

Xalqaro jurnalistika ommaviy axborot vositalarini uzatish kanallari majmuasi turli xil aloqa vositalardan (matbaa, radio, televideenie, Internet) foydalanish va har xil turdag'i nashrlar va dasturlarni shakllantirish (milliy va mahalliy, umumiyligida ixtisoslashtirilgan auditoriya, mavzu, iqtisodiyot, hayot sohasi, ijtimoiy mavqe, yo'naliish, ijodiy tasvir va boshqalar) va boshqalar milliy va jahon axborot makonida faoliyat yuritadi.

Radio jurnalistika

Radiojurnalist og'zaki so'z bilan qurollangan bo'lib, intonatsiyalar, semantik va mantiqiy stresslar, pauzalar, musiqa va shovqinlar bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu tinglovchilarga nafaqat matnni, balki subtekstni ham olib borishga imkon beradi, mazmunni boyitadi. radio materialidan.

1 <https://l-gallery.ru/uz/okrashivanie/istoriya-poyavleniya-i-razvitiya-zhurnalistichestva-proishozhdenie/> Jurnalistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi. Jurnalistikaning kelib chiqishi, tushunchalari va modellari Birinchi jurnalist kim



Radioaxborot iste'molchisi uchun asosiy idrok organi eshitishdir.

Telejurnalistika

Televizor audiovizual tasvirlar bilan ishlaydi. Uning kuchi ko'rinishda, aniqlikda, ko'rgan narsasini boshqa yo'l bilan talqin qilishning amaliy imkonsizligidadir.

- Tarqatish kanallari: televizor (analog, kabel, sun'iy yo'ldosh), internet;
- Asosiy vosita: video;

Zamonaviy televidenie tasnifiga yondashuvlar:

- televidenie signalini etkazib berish usuli bo'yicha: yer usti (yer usti), yer usti bo'lмаган (kabel, sun'iy yo'ldosh), keng polosali Internet televideniesi va mobil televidenie ajratiladi;
- signal turi bo'yicha: analog va raqamli, shuningdek standart (SD) va yuqori aniqlikdagi (HD) televizor;

Har qanday davlat instituti kabi jurnalistika ham dunyoda o'zining bugungi mavqeini egallashdan oldin murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdi. U xizmat qilishga chaqirilgan jamiyatning ta'siri ostida o'rnidan turdi, takomillashdi va o'sdi. Matbuot insoniyat tamaddunining mahsuli va ajralmas qismi, milliy va jahon madaniyatining "ko'zgusi" bo'lib, uning faoliyati mazmuni va shakllari tarixning muayyan bosqichidagi muayyan ijtimoiy tuzum ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir.

Foydalanimgan adabiyotlar.

1. <https://l-gallery.ru/uz/okrashivanie/istoriya-poyavleniya-i-razvitiya-zhurnalistiki-proishozhdenie/> Jurnalistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi. Jurnalistikaning kelib chiqishi, tushunchalari va modellari Birinchi jurnalist kim.
2. Do'stmuhammad X. Jum alish bo'lmoqchimisiz? — T.: 2001..
3. F.Mo'minov, A.Nurmatov va boshq. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. T.: «Fan va texnologiya», 2008, 328 bet.



TURIZM SOHASIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR.

Xudayberdiyeva Muxlisa

O’zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti magistri

Annotation. Ushbu maqolada turizm sohasidagi zamonaviy istiqbollarning jamoatchilik bilan birgalikda uzviy aloqalar hamda bog’liqliklarini ilmiy asoslar bilan yoritib berilgan. Shuningdek jamoatchilikning turizm sohasidagi tushunchalarini va turizmni rivojlantirishdagi o’rnini ham amaliy ishlar kesimida yoritib berilgan.

Keywords: turizm sohasi, zamonaviy istiqbollar, ilmiy asoslar, turizmni rivojlantirish, amaliy ishlar.

Kirish: Bugungi kunga kelib mamlakatimizda bo’layotgan islohat ishlari, barcha sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Harakatlar strategiya”sida belgilab olgan istiqbollar hamda buyuk maqsadlar hozirgi vaqtida mamlakatimizning ustvor vazifasi hisoblanadi.¹

Turizm sohasini keying yillarda jadal rivojlantirish hamda soha uchun qulay infratuilmani yaratish uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilinaytgan qaror va farmonlarni buning amaliy isbotida keltirishimiz mumkin.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Turizm to‘g‘risida”gi qabul qilgan qarori ushbu sohadagi ishlarning tizimli hamda aniq maqsadlar bilan takomillashtirib borishini belgilab beradi.²

Yuqorida qarorda soha bo’yicha quyidagilar keltirilgan:

- Turizmning shakllari va turlari
- Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari
- Turistik industriya va turistik industriyadagi xizmatlarning turlari
- Turistik axborot markazi

Keltirilgan hamma tushunchalar faqat ushbu soha doirasida emas aksincha jamoatchilikning ham turizm rivojlanishidagi o’rnini anglatadi.

Turistik industriya obyektlarini tasniflash va ularga toifalar berish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

Joylashtirish vositalarini, tog‘-chang‘isi trassalarini, plyajlarni o‘z ichiga olgan turistik industriya obyektlarini tasniflash va ularga toifalar berish, shuningdek berilgan Toifalar reyestrini yuritish vakolatli davlat organi huzuridagi akkreditatsiya qilingan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Joylashtirish vositalari mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualarni, dam olish uylari va zonalarini, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylarini, o‘tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylarni hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo’yicha xizmatlar) ko‘rsatiladigan boshqa obyektlarni, shuningdek joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan yer usti transportini o‘z ichiga oladi.

Toifa berilgan turistik industriya obyektining mulkdori va (yoki) egasi uning mazkur toifaga muvofiq bo’lishini ta’minlashi shart.

Mamlakat turizm sanoatini rivojlantirish, iqtisodiyotning tez o‘sishini ta’minlashda uning rolini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, dunyo bozorida milliy turistik mahsulot salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur faoliyat milliy turizm sohasini axborot bilan ta’minlash, turistik operatorlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalari yechimlari va komputer dasturlarini ishlab chiqish, axborot bozori subyektlariga uyg‘unlashgan holda ishslash, xalqaro miqyosda mamlakatimiz nufuzini oshirish bo’yicha ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot ishlarni olib borishni taqozo etadi.³

Yuqoridagi keltirilgn fikr mulohazalar turizm sohasining jamoatchilik bilan birgalikda rivojlanihtendensiyasini belgilab beradi. Turizm sohasi shunday sohaki, hududda mavjud

1 www.lex.uz O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-4749 sonli “Harakatlar strategiya” faroni. 7-fevral 2017 yil.

2 <https://lex.uz/docs/-4428097> O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Turizm to‘g‘risida”gi qarori.

3 <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=808> Turizm salohiyatini oshirish istiqbollari.



imkoniyatlardan foydalangan holda qulayliklarni yaratishdan iborat. Jamoatchilik a'zolar bo'lган insonlar ham turizm sohasini jadallashuvga o'zining hissasini bevosita hamda bilvosita ko'rinishda bo'ladi. Shu bilan birgalikda ichki va tashqi turizmning ham ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Turizm sohasida marketing ham muhim sanalib turistlarning tashrif buyurishiga o'sha hududdagi jamoatchilikning dunyoqarashi ham ta'sir qiladi. Madaniy-ma'naviy boyliklar ham aynan shu jamoatchilikning dunyoqarashiga bog'liq hisoblanadi hamda turizm bilan birgalikda uzviy aloqasini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PF-4749 sonli "Harakatlar strategiyasi" faroni. 7-fevral 2017 yil.

2. <https://lex.uz/uz/docs/-4428097> O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Turizm to'g'risida"gi qarori.

3. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=808> Turizm salohiyatini oshirish istiqbollari.

4. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna TURIZM ASOSLARI. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti toshkent - 2011



AUDITORIYAGA TA'SIR QILISH USULLARI

Yo'ldosheva Mohira

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalari universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ommaviy kommunikatsiyalarning ijtimoiy psixologiyasining amaliy jihatlari va auditoriyaga ta'sir qilish usullari hamda axborot almashinuvida amalda qo'llash imkoniyatlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: matbuot auditoriyasi, psixologik ta'sir, infektsiya, kommunikator, gipnoz taklifi,

Ommaviy kommunikatsiyalarning ijtimoiy psixologiyasining amaliy jihatlarini o'rganish kontekstida ommaviy auditorianing psixologik xususiyatlarini hisobga olish katta qiziqish uyg'otadi.

Ommaviy auditoriya - bu ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan ma'lumotlarning iste'molchisi sifatida ishlaydigan odamlar yig'indisidir. Bular gazeta, jurnal va kitob o'quvchilari, radio tinglovchilar va teletomoshabinlar, internet va kompyuter dasturlari foydalanuvchilari, diskotekaga tashrif buyuruvchilar, disk xaridorlari va kinoteatrлarga tashrif buyuruvchilardir.¹

Ommaviy auditoriya ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqada bo'lgan cheksiz katta va sifat jihatidan bir xil bo'lмаган odamlar guruhi sifatida tavsiflanishi kerak. Qoidaga ko'ra, ijtimoiy-demografik xususiyatlari bo'yicha bir-biriga o'xshamaydigan odamlar unga "aralashadilar". Ularning yagona umumiyligi tomoni - ma'lum bir ma'lumot manbasiga qiziqish. Shu bilan birga, auditorianing kattaligi ma'lum bir ma'lumot manbasining ijtimoiy ahamiyati va ta'sir ko'lami ko'rsatkichidir.

Shartli ravishda, ommaviy auditoriyada uning quyidagi turlarini ajratish mumkin²:

1) matbuot auditoriyasi, uning psixologik xususiyati shundaki, matbuotdagi ma'lumotlar qog'oz varag'iga yoziladi va o'quvchi tomonidan "vositachilarsiz" qabul qilinadi. Bu matbuot va tomoshabinlar o'rtaqidagi munosabatlarning bir qator muhim xususiyatlarining namoyon bo'lishiga yordam beradi;

- nashr yoki kitobga kiritilgan xabarlarning butun repertuari bilan tez, umumiyligi ko'rinishda tanishish imkoniyati mavjud, bu esa o'z navbatida butun ma'lumot hajmida birlamchi, yaxlit yo'nalishni olish imkonini beradi;

- "kechiktirilgan o'qish" imkoniyatlaridan foydalanishingiz mumkin;

2) radio auditoriyasi, uning o'ziga xosligi tinglovchilar auditoriyasining xilma-xilligi va uzatish faqat qulqor qolgali qabul qilinishi. Bu erda muhim narsa - tomoshabinlar uchun aniq ishlab chiqilgan qat'iy dastur siyosati, uni yaxshi amalgaga oshirish bilan bir va boshqa auditoriya uchun zarur bo'lgan dasturlarning "bir-biriga mos kelishi" minimal bo'ladi;

3) televideenie auditoriyasi, o'ziga xos bo'lgan televideenie hali ham bosma va radiodan ko'ra ko'proq ta'sirga ega, shuningdek, aholi orasida keng ommalashmoqda. Telekanallarning keng va xilma-xilligi tufayli har bir kishi o'z "ta'mini" tanlaydi. Televizorda kanallarning janr va tematik xilma-xilligi reytingni saqlab qolish va tomoshabinlarni jalb qilishga yordam beradi.

4) Internet-saytlar auditoriyasi, ularning muhim xususiyatlari, birinchidan, Internet muhitining real vaqt rejimida o'zaro ta'sir qilish imkoniyati nafaqat iste'mol qilish, balki media-mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan faollikkadir, ikkinchidan, tinglovchilar a'zolarining bir-birlari bilan muloqot qilishlari va bog'lanishlari uchun qulaylik. Internet saytlarining ommaviy auditoriyasining muhim xususiyati uning vaqtinchalik va hududiy tarqalishidir, garchi auditorianing bir qismi bir vaqtning o'zida bir xonada bo'lishi mumkin.

Ommaviy kommunikatsiyalar sohasida turli xil psixologik ta'sir usullari qo'llaniladi. Ommaviy axborot vositalarining psixologik ta'siri munosabatni o'zgartirish, narsalarga ma'lum nuqtai nazarni shakllantirish yoki ommaviy auditorianing qadriyatlar tizimida siljishdir. Ijtimoiy-psixologik munosabatlar - bu tajriba asosida shakllanadigan va shaxsning u bilan bog'liq bo'lgan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlar va vaziyatlarga munosabatiga ta'sir qiluvchi

1 Березкина О. П. Социально-психологическое воздействие СМИ.-М. :Академия, 2009.-240 с

2 Олешко В.Ф. Психология журналистики: (учеб. пособие)/-Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2014.-476 с



psixologik tayyorgarlik holatidir. Munosabatlar tizimi ham kognitiv, ham hissiy aloqalarga asoslanadi. Birinchi navbatda nima o'zgaradi - hissiy munosabat yoki mantiqiy, kognitiv aloqalar va bilim? Ikkala variant ham mumkin: hissiy munosabatning o'zgarishi kognitiv ma'nuning o'zgarishiga olib keladi.¹ Ammo shunga qaramay, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, munosabatlarni o'zgartirishning yanada ishonchli va tezroq usuli bu hissiy ma'noni, muayyan muammoga munosabatni o'zgartirishdir.

Ommaviy axborot vositalarining insonga ta'siri qanday psixologik ta'sir usullari - infektsiya, taklif yoki ishontirish ishlataligani bog'liq.²

Yuqumlilik - ta'sirning eng qadimiyligi psixologik mexanizmi bo'lib, u ma'lum bir hissiy, ruhiy munosabatning kommunikatoridan qabul qiluvchiga o'tishidir. U insonning hissiy-behush sohasiga (vahima, asabiylashish, kulish va boshqalar bilan infektsiya) murojaat qilishga asoslangan. Ta'sir ta'sir etuvchi kommunikatorning hissiy holatining intensivligi darajasiga bog'liq. Kommunikatorning hissiy transining ta'siri ostida birlik tuyg'usini yaratish uchun odamlar soni etarlicha katta bo'lishi kerak.³

Taklif - bu psixologik ta'sir qilish usuli bo'lib, u ongsizlikka, inson his-tuyg'ulariga murojaat qilishga asoslangan, ammo og'zaki vositalar bilan va kommunikator hissiy transda emas, balki oqilona holatda, ishonchli axborotni berishdir. Taklif asosan axborot manbasining vakolatiga asoslanadi - agar taklif qiluvchining vakolati bo'lmasa, u barbod bo'lishga mahkumdir. Taklif og'zaki xarakterga ega, ya'ni uni faqat so'z bilan taklif qilish mumkin, ammo bu xabar qisqartirilgan va kuchaytirilgan ifodaga ega. Bu yerda intonatsiyaning roli juda muhim (90% samaradorlik so'zlarning ishonarlilagini, vakolatini, ahamiyatini ifodalovchi intonatsiyaga bog'liq). Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, taklifga moyillik - taklifga moyillik darajasi, kiruvchi ma'lumotni tanqidiy idrok etish qobiliyati - turli odamlar uchun bir xil emas: asab tizimi zaif va o'tkir odamlarda yuqori bo'lishi mumkin. Munosabatlar muvozanatli bo'lman odamlar ko'proq tavsiya etiladi (masalan, bolalar). Shuningdek, birinchi signalizatsiya tizimi ustun bo'lganlar taklifga ko'proq moyil. Taklifning uchta asosiy shakli mavjud⁴: gipnoz taklifi (gipnoz holatida), bo'shashish holatidagi taklif (mushaklar va aqliy bo'shashish) va faol holatda taklif; odam uyg'oq bo'lganda.

Axborotni qabul qilishda va hissiy uzatishdan foydalanishda odamning tanqidiyligini kamaytirishga qaratilgan turli xil taklif usullari mavjud:

- xabarni uzatishda yangi narsa ma'lum bo'lgan faktlar, hodisalar, inson hissiy jihatdan ijobiy munosabatda bo'lgan odamlar bilan bog'lanishini nazarda tutadigan uzatish texnikasi, bu hissiy holat yangi ma'lumotlarga o'tadi (salbiy munosabatni o'tkazish). ham mumkin, bu holda kiruvchi ma'lumotlar rad etiladi;

- mashhur shaxs, olim, mutafakkirdan iqtibos keltiruvchi dalillarni olish;
- "hammag'a murojaat qilish" texnikasi ("ko'pchilik bunga ishonishadi ...").

Ushbu taklif usullarining barchasi tanqidiylikni pasaytiradi va odamning olingan ma'lumotlarga nisbatan moslashuvchanligini oshiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Березкина О. П. Социально-психологическое воздействие СМИ.-М. :Академия, 2009.-240 с
2. Олешко В.Ф. Психология журналистики: (учеб. пособие)/-Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2014.-476 с
3. Харрис Р. Психология массовых коммуникаций / Р. Харрис. СПб. ; М. : Прайм-ЕвроЗнак, 2002. 448 с
4. Психология творчества: учебно-методические рекомендации / Э.Р. Агаджанова – Ульяновск: УлГУ, 2019, -113 с.
5. Березкина О. П. Социально-психологическое воздействие СМИ.-М. :Академия, 2009.-240 с
6. Тошпўлатова Н. Журналистика психологияси. –Т.,2013.

1 Харрис Р. Психология массовых коммуникаций / Р. Харрис. СПб. ; М. : Прайм-ЕвроЗнак, 2002. 448 с

2 Психология творчества: учебно-методические рекомендации / Э.Р. Агаджанова – Ульяновск: УлГУ, 2019, -113 с.

3 Березкина О. П. Социально-психологическое воздействие СМИ.-М. :Академия, 2009.-240 с

4 Тошпўлатова Н. Журналистика психологияси. –Т.,2013.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 6-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000